

UDK: 7.017.3:372.8

**TASVIRIY SAN'AT TA'LIMIDA KOMPOZITSIYA YARATISH
JARAYONINING O'QUVCHINING ESTETIK, BADIY
VA IJODIY RIVOJLANISHIDAGI ROLI**

Imomov Fozil Shakarbek o'g'li

Guliston davlat pedagogika instituti,

"San'atshunoslik" kafedrası o'qituvchisi

E-mail: fozilimomov68@gmail.com

Jo'raboyeva Marjona Odiljon qizi

Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

e-mail: joraboyevamarjona87@gmail.com

Annotatsiya: maqolada tasviriy san'at ta'limida kompozitsiya yaratish jarayonining o'quvchining estetik, badiiy, vizual va ijodiy rivojlanishidagi roli o'rganilgan. Amaliy-loyiha modeli yordamida o'quvchilarning tafakkuri, metakognitiv va refleksiv ko'nikmalari rivojlantiriladi. Natijalar loyiha asosidagi yondashuv an'anaviy metodlarga nisbatan samaraliroq ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, kompozitsiya, amaliy-loyiha modeli, ijodiy tafakkur, estetik ong, vizual madaniyat.

**THE ROLE OF THE COMPOSITION CREATION PROCESS
IN VISUAL ARTS EDUCATION IN STUDENTS' AESTHETIC,
ARTISTIC, AND CREATIVE DEVELOPMENT**

Abstract: this article examines the role of the composition creation process in visual arts education in the aesthetic, artistic, visual, and creative development of students. Using a practical-project model, students' thinking, metacognitive, and reflective skills are developed. The results indicate that a project-based approach is more effective compared to traditional methods.

Keywords: visual arts, composition, practical-project model, creative thinking, aesthetic awareness, visual literacy.

**РОЛЬ ПРОЦЕССА СОЗДАНИЯ КОМПОЗИЦИИ В ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМ
ОБРАЗОВАНИИ В ЭСТЕТИЧЕСКОМ, ХУДОЖЕСТВЕННОМ И
ТВОРЧЕСКОМ РАЗВИТИИ УЧАЩИХСЯ**

Аннотация: в статье исследуется роль процесса создания композиции в изобразительном образовании в эстетическом, художественном, визуальном и

творческом развитии учащихся. С помощью практико-ориентированной проектной модели развиваются мышление, метакогнитивные и рефлексивные навыки учащихся. Результаты показали, что проектно-ориентированный подход является более эффективным по сравнению с традиционными методами обучения.

Ключевые слова: изобразительное искусство, композиция, практико-ориентированная проектная модель, творческое мышление, эстетическое сознание, визуальная культура.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi insonparvarlik va kompetensiyaviy yondashuv prinsiplari asosida rivojlanadi, bu esa o'quvchini nafaqat bilimlarni passiv qabul qiluvchi sifatida emas, balki faol ijodiy va intellektual subyekt sifatida shakllantirish imkonini beradi [1:12]. Bunday yondashuv shaxsning o'z qobiliyatini anglashini, ijodiy potensialini ro'yobga chiqarishini va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishni ta'minlaydi, bu esa zamonaviy pedagogikaning eng muhim ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi [2:12]. Tasviriy san'at fani ushbu jarayonda alohida o'rin tutadi, chunki u o'quvchining estetik madaniyati, badiiy tafakkuri, ijodiy salohiyati va vizual dunyoqarashini tizimli ravishda rivojlantiruvchi asosiy pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi [3:12]. Darslarda ishlatiladigan vizual va amaliy mashqlar nafaqat texnik ko'nikmalarni shakllantiradi, balki tafakkur jarayonlarini kompleks tarzda rivojlantiradi [4:12]. Masalan, kompozitsiya yaratish jarayoni o'quvchining strukturaviy, semantik va estetik bog'liqliklarni anglashini rag'batlantiradi, shu bilan birga vizual, emotsional va intellektual rivojlanishga hissa qo'shadi.

O'quvchi tasvir elementlarini joylashtirayotganda, u fazoviy idrokni, nisbat va ritmni tushunishni o'rganadi; bu esa uning vizual tafakkurini chuqurlashtiradi va badiiy obrazlarni ifodalashda shaxsiy hissiyot va tafakkurni qo'llash imkonini beradi [5:12]. Shu jarayon natijasida o'quvchi o'zining ijodiy qarorlarini qabul qilish va harakatlarini tahlil qilish orqali kognitiv mustaqillikka erishadi.

Bundan tashqari, kompozitsiya yaratish jarayoni analitik va kritik fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda ham muhim vosita hisoblanadi. Rangning ohangi, yorug'-soya munosabati, shakllar va ularning joylashuvi o'quvchiga muammoni aniqlash, uni vizual tahlil qilish va ijodiy yechim topish imkonini beradi [6:12]. Shu bilan birga, tasviriy san'at darslari o'quvchining kognitiv, estetik va emosional qobiliyatlarini bir vaqtning o'zida rivojlantiruvchi integrativ mexanizmga aylanadi.

Shu tariqa, tasviriy san'at nafaqat amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi, balki o'quvchining ijodiy tafakkuri, estetik didi va noverbal kommunikatsiya qobiliyatlarini rivojlantirishda ham markaziy o'rin egallaydi [7:12]. Bu esa zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchining shaxsiy va professional rivojlanishiga bevosita ta'sir

ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu tadqiqot kompozitsiya yaratish jarayonini o'quvchilarning shaxsiy ijodiy potensialini rivojlantirishga qaratilgan amaliy-loyiha modeli asosida o'rganishga yo'naltirilgan. Tadqiqotda ilgari ishlab chiqilgan pedagogik metodikalar va zamonaviy tasviriy san'at yondashuvlari tahlil qilindi, shuningdek, o'quvchilarning kognitiv, estetik va ijodiy ko'nikmalarini baholashga qaratilgan monitoring usullari qo'llanildi.

Taklif etilgan amaliy-loyiha model besh bosqichdan iborat bo'lib, har bir bosqich o'quvchining tafakkur va ijodiy jarayonlarini tizimli rivojlantirishga xizmat qiladi:

1. G'oyaviy konsepsiyani aniqlash – o'quvchi tasvirning mazmuniy yadrosini aniqlaydi va asosiy obrazni konseptual jihatdan asoslaydi. Bu bosqich tafakkur va ijodiy qaror qabul qilish jarayonini rag'batlantiradi hamda o'quvchining estetik sezgirligini rivojlantiradi [1:12].

2. Eskiz variantlarini ishlab chiqish – bir nechta vizual variantlar yaratiladi, bu esa divergent tafakkurni rivojlantiradi va ijodiy fikrlash qobiliyatini mustahkamlaydi. Ushbu jarayonda o'quvchilar turli badiiy yechimlarni sinab ko'rish orqali muammoni hal qilishda mustaqil qarorlar qabul qilishni o'rganadilar [2:12].

3. Kompozitsion markaz va strukturaviy muvozanatni belgilash – vizual muvozanat, nisbat va ritm qonuniyatlariga e'tibor qaratiladi, bu esa tasvir elementlarining bir-biri bilan uyg'unligini ta'minlaydi. Shu bosqich o'quvchining vizual tafakkurini chuqurlashtiradi [3:12] va badiiy strukturani tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

4. Rang va yorug'-soya tizimini asoslash – rang va shakllarning o'zaro uyg'unligi aniqlanadi; V. Kandinskiy rang-shakl interaksiyasini badiiy ifodaning ichki energetik kuchi bilan bog'laydi. Bu jarayon o'quvchiga rang tanlashning estetik va psixologik ahamiyatini tushunishga yordam beradi [4:12], shuningdek, vizual hissiyotlarni samarali ifodalash imkonini yaratadi.

5. Yakuniy badiiy amalga oshirish va reflektiv tahlil – o'quvchi yakuniy ishni yaratadi va natijani tahlil qiladi, shu orqali metakognitiv ko'nikmalar rivojlantiriladi [5:12]. Reflektiv tahlil jarayoni o'quvchining o'z ishini baholash, o'z qarorlarini tahlil qilish va kelajakdagi ijodiy faoliyatga strategiyalar ishlab chiqishga yordam beradi.

Tadqiqot davomida o'quvchilarning kognitiv va noverbal tafakkuri, estetik sezgirligi, vizual va ijodiy kompetensiyalari baholandi. Shu bilan birga, model didaktik nuqtai nazardan izchillik, tizimlilik va faoliyatga yo'naltirilganlik tamoyillariga asoslangan [6:12], bu esa pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Qo'shimcha ravishda, ushbu metodologiya o'quvchining shaxsiy va ijodiy tajribasini integrativ tarzda rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, an'anaviy repetitiv metodlardan farqli o'laroq, o'quvchini faol subyekt sifatida jarayonga jalb qiladi va

mustaqil fikrlash qobiliyatini mustahkamlaydi. Shu jihatdan, amaliy-loyiha modelining tatbiqi nafaqat san'at ta'limi, balki umumiy kognitiv rivojlanish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kompozitsiya yaratish jarayoni o'quvchilarning estetik, badiiy, vizual va kognitiv rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot davomida kuzatilgan asosiy natijalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Estetik ongni shakllantirish – o'quvchilar tasviriy elementlar va rang ohanglarini tanlash orqali estetik qarorlar qabul qilishni o'rganadilar. Bu jarayon ularning san'atga bo'lgan estetik sezgirligini rivojlantiradi [7:12] va badiiy didning chuqurlashishiga yordam beradi.

2. Badiiy tafakkurini chuqurlashtirish – kompozitsiya yaratish jarayoni o'quvchilarda semantik, strukturaviy va energetik bog'liqliklarni anglashni rivojlantiradi [8:12]. O'quvchilar badiiy elementlarning o'zaro ta'sirini tahlil qilib, ijodiy qarorlar qabul qilish orqali tafakkurini yanada murakkablashtiradi.

3. Vizual-madaniy savodxonlikni oshirish – o'quvchilar tasviriy elementlar, nisbat, ritm va fazoviy idrok bilan ishlash orqali vizual madaniyatini rivojlantiradilar. Bu jarayon nafaqat san'atni anglashni, balki muayyan vizual kodlarni talqin qilish [9:12] va badiiy yechimlarni yaratish qobiliyatini ham mustahkamlaydi.

4. Ijodiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish – eskizlar va yakuniy ishlar yaratish jarayonida o'quvchilar divergent tafakkur, kritik tahlil va reflektiv fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlashdi. Shu bilan birga, loyiha asosidagi yondashuv an'anaviy repetitiv metodlarga nisbatan samaraliroq ekanligi tasdiqlandi [10:12], chunki u o'quvchini faol subyekt sifatida jarayonga jalb qiladi va o'z qarorlarini mustaqil qabul qilishga rag'batlantiradi.

Shuningdek, natijalar ko'rsatdiki, kompozitsiya yaratish jarayonida o'quvchilarning hissiy va motivatsion jihatlari ham rivojlantiriladi. O'z ishini yaratish va tahlil qilish orqali o'quvchilar o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi, ijodiy qobiliyatlarni amaliy tarzda qo'llashga intiladi [11:12]. Shu tarzda, tasviriy san'at darslari o'quvchilarning estetik, kognitiv va emosional rivojlanishini integrativ tarzda ta'minlaydigan samarali pedagogik mexanizmga aylanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

San'at nazariyasi nuqtai nazaridan, kompozitsiya tasvir elementlarining ichki mantiqiy uyg'unligi, mazmuniy markaz atrofida birlashgan yaxlit strukturasi va vizual tizimi sifatida talqin qilinadi [1:12]. Bu jarayon shaxsning konstruktiv-ijodiy tafakkur mahsuli bo'lib, reproduktiv faoliyatdan tubdan farq qiladi, chunki u o'quvchidan tayyor namunalarni takrorlash o'rniga yangi badiiy yechimlarni yaratishni talab qiladi [2:12]. Shu jihatdan kompozitsiya yaratish nafaqat san'at asarini shakllantirish, balki

o'quvchining ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatlarini kompleks rivojlantirish vositasi sifatida qaraladi.

Psixologik nuqtai nazardan, kompozitsiya yaratish murakkab kognitiv faoliyat turiga kiradi. L.S.Vygotskiy ijodiy tasavvurni mavjud tajriba elementlarining yangi kombinatsiyasi sifatida izohlaydi, bu esa o'quvchining ilgari o'rganilgan bilim va ko'nikmalar asosida yangi badiiy tizim yaratish imkoniyatini beradi [3:12]. Shu bilan birga, kompozitsiya yaratish jarayoni o'quvchining ichki dunyosini ifodalash, o'z munosabatini shakllantirish va badiiy hamda semantik ma'no yaratish imkoniyatini beradi [4:12]. O'quvchilar bu jarayonda o'z hissiyotlari, individual estetik qarashlari va tafakkur strategiyalarini qo'llashni o'rganadilar, bu esa ularning metakognitiv va refleksiv qobiliyatlarini mustahkamlaydi.

Amaliy-loyiha modelining tadbiqui natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar faol subyekt sifatida jalb etilganda, estetik sezgirlik, tafakkur va kognitiv qobiliyatlar bir vaqtda rivojlantiriladi. Loyiha asosida ishlash o'quvchini muammoni mustaqil tahlil qilish, turli badiiy yechimlarni sinab ko'rish va yakuniy qaror qabul qilish jarayoniga jalb qiladi, bu esa an'anaviy repetitiv metodlarga nisbatan samaraliroq ekanligini ko'rsatadi [5:12]. Shu bilan birga, E.Eysner san'at faoliyatini intellektual rivojlanishning muhim sohasi sifatida baholaydi, bu modelning metodik samaradorligini va o'quvchilarning kognitiv hamda noverbal tafakkurini rivojlantirishdagi rolini tasdiqlaydi [6:12].

Kelgusida mazkur modelni raqamli grafik platformalar, dizayn texnologiyalari va integrativ STEAM yondashuvi bilan boyitish tasviriy san'at ta'limining ilmiy-amaliy salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi [7:12]. Shu yo'nalishda interaktiv dizayn va raqamli vizual kommunikatsiya vositalarini joriy etish o'quvchilarning ijodiy tafakkurini kengaytiradi, hamda ular uchun zamonaviy san'at va texnologiyalar bilan integratsiyalashgan o'quv tajribasini yaratadi. Shu tarzda, kompozitsiya yaratish jarayoni nafaqat badiiy va kognitiv, balki texnologik jihatdan ham rivojlangan shaxslar tayyorlashga xizmat qiluvchi samarali pedagogik modelga aylanadi.

XULOSA

Kompozitsiya yaratishning amaliy-loyiha modeli tasviriy san'at ta'limini modernizatsiya qilishga qaratilgan innovatsion metodik yechim sifatida baholanishi mumkin. Ushbu model nafaqat o'quvchilarning texnik ko'nikmalarini shakllantiradi, balki ularning estetik ongini rivojlantiradi, badiiy tafakkurini chuqurlashtiradi, vizual madaniyatini kengaytiradi va ijodiy kompetensiyalarini mustahkamlaydi [8:12]. Shu nuqtai nazardan, tasviriy san'at darslari nafaqat san'atni o'rgatish vositasi, balki o'quvchining intellektual, emotsional va noverbal tafakkurini rivojlantiruvchi kompleks pedagogik jarayon sifatida qaraladi. Amaliy-loyiha modelining tatbiqi o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini, divergent tafakkurini va refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, bu esa ularni zamonaviy ijodiy va

akademik talablarga mos shaxslar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Kelajakda ushbu modelni raqamli texnologiyalar, interaktiv dizayn vositalari va integrativ STEAM yondashuvi bilan boyitish orqali tasviriy san'at ta'limining ilmiy-amaliy salohiyatini yanada oshirish mumkin. Shu tarzda, model o'quvchilarning ijodiy tafakkuri, vizual savodxonligi va estetik qarashlarini rivojlantirish bilan birga, ularni kompleks, tizimli va zamonaviy pedagogik jarayonlarga tayyorlashda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Arnheim R. Art and Visual Perception: A Psychology of the Creative Eye. University of California Press, 1974.
2. Inoyatov O. S. NUQTA VA TO'G'RI CHIZIQLARNING PERSPEKTIVADAGI TASVIRI: GEOMETRIK MODELASHTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI //SHOKH LIBRARY. – 2026. – T. 1. – №. 1.
3. Inoyatov, O. (2025). TEKISLIK LARNING O'ZARO PARALLELLIGI. ИЖТИМОЙ-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5(S/1), 495–500. <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI1Y2025N76>
4. Хайров Расим. ИНДИВИДУАЛЬНЫЙ ПОДХОД И СОЗДАНИЕ СИТУАЦИИ УСПЕХА НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА. В International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) Volume. 7, Issue 02, February (2024) Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10778131>
5. Alimjanovna Y. S. TOOLS AND CRITERIA OF COMPOSITION IN THE CREATIVE PROCESS OF FINE ARTS CLASSES OF UNIVERSITY SCHOOLS //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2024. – T. 5. – №. 02. – С. 48-58.
6. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "SCIENTIFIC APPROACHES TO ENHANCING TEACHER COMPETENCE IN FINE ARTS CLASSES." CONFERENCE OF INNOVATIVE HORIZONS IN SCIENCE & ENGINEERING. Vol. 1. No. 2. 2025.
7. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "DEVELOPMENT OF CREATIVE COMPETENCIES AS THE FOUNDATION OF PROFESSIONAL GROWTH FOR VISUAL ARTS TEACHERS. Zenodo." 2025,
8. Pardaboevich, Jumaboev N., et al. "The Main Tasks of Fine ARTS in the Educational Process." International Journal on Orange Technologies, vol. 3, no. 5, 2021, pp. 64-67.
9. Baxtiyarova, F. "MODERN TECHNOLOGIES IN DEVELOPING PROFESSIONAL CREATIVE ACTIVITY OF STUDENTS." Ilm-Fan Va ta'lim 1.1 (2023).
10. Shakarbek o'g'li I. F. CHIZMACHILIK DARSLARIDA KICHIK GURUHLAR BILAN ISHLASHDA INDIVIDUAL YONDASHUV. PEDAGOGS, 73 (1), 262-265 [Электронный ресурс].
11. Имомов Ф. CHIZMACHILIK FANINING O'QUVCHILARNING SHAXSIY RIVOJIGA TA'SIRI //Свет науки. – 2025. – №. 10 (45).